



DUKKAKLI DON EKINLARINING ZARAKUNANDALARI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI

Azizov Qobiljon Qaxramonovich

Ozuqa ekinlari ilmiy-tajriba stansiyasi laboratoriya mudiri, E-mail:
azizov.kobil@yandex.ru Tel: +998911929870

Yaxshiboyev Omadjon Ne'matjonovich

Ozuqa ekinlari ilmiy-tajriba stansiyasi kichik ilmiy xodimi, E-mail:
yaxshiboyevomadjon@gmail.com Tel: +998999142207

To'rayeva Zarifa Abduvali qizi

Ozuqa ekinlari ilmiy-tajriba stansiyasi laboranti, E-mail
yaxshiboyevayaxshiboy@gmail.com Tel: +998996149689

Annotatsiya. Respublikamizning turli iqlim sharoitlarida don dukkakli ekinlarning zararli organizmlariga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish hosildorlikni oshishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xozirgi kunda asosiy dukkakli ekinlar hisoblangan mosh, loviya va no'xat xalq istemolidagi eng zarur mahsulot bo'lganligi sababli ushbu maqolamizda ularning zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralarini haqida to'xtalib o'tdik.

Аннотация: Разработка мероприятий по борьбе с вредными организмами зернобобовых культур в различных климатических условиях нашей республики имеет большое значение в повышении урожайности. Сегодня маш, фасоль и горох, являющиеся основными зернобобовыми культурами, являются наиболее необходимыми продуктами для потребления населения.

Annotation. The development of measures to combat harmful organisms of grain leguminous crops in different climatic conditions of our republic is of great importance in increasing productivity. Today, mung beans, beans and peas, which are the main leguminous crops, are the most necessary products for people's consumption.

Kalit so'zlar: Dukkali don ekinlari, no'xat biti, no'xot, o'rgimchakkana, chinbarg, qo'ng'izlar, o'suv nuqtasi, loviya donxo'ri, to'rt dog'li donxo'r, ikkiqanotlilar, beda qandalasi, tangaqanotlilar yoki kapalaklar, kuzgi tunlam, almashlab ekish.

Ключевые слова: Бобовые культуры, гороховый долгоносик, горох, паутиный клещ, шиншилла, жуки, точка роста, бобовый долгоносик, четырехпятнистый долгоносик, двукрылые, люцерна кандала, многоножки или бабочки, паслен осенний, севооборот.

Key words: Legumes, pea weevil, pea, spider mite, chinchilla, beetles, growing point, bean weevil, four-spotted weevil, dipterans, alfalfa kanдала, centipedes or butterflies, fall nightshade, crop rotation.

O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 iyuldagi "Respublikada o'simliklar karantini va himoyasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6262-son Farmonida o'simliklarni himoya qilish sohasini rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.



O‘zbekistonning turli iqlim sharoitlarida don dukkakli ekinlarning zararli organizmlariga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish hosildorlikni oshishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xozirgi kunda asosiy dukkakli ekinlar hisoblangan mosh, loviya va no‘xat xalq istemolidagi eng zarur mahsulotga aylangan. Ushbu ekinlar nafaqat xalqimiz iste‘moli uchun, balki chet davlatlariga eksport qilishda o‘z o‘rnini topdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu qo‘llanma fermer xo‘jaliklariga xizmat qiladi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda past rentabelli, suv ta‘minoti og‘ir bo‘lgan 152,4 ming gektar paxta va galla maydonlari qisqartilib, o‘rniga sabzovot, poliz va ozuqa ekinlar ekilishi hamda intensiv mevali bog‘ va tokzorlar barpo etilishi bilan aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji qondirilib, bozorlarda narx-navo barqarorligi ta‘minlanmoqda. 2019 yili g‘alladan bo‘shagan maydonlarda jami 284067 gektarga, bog va tok ekinlari orasiga esa 6360 gektarda dukkakli don ekinlari ekilgan.

Ma‘lumki, dukkakli don ekinlarga jiddiy zarar yetkazuvchi xavfli zararkunandalar soni bir necha ko‘plab turni tashkil qiladi. Ular dukkakli ekinlarning ildizini va yosh nixollarini, vegetativ va generativ organlarini zararlab hosildorlikni kamayishiga va o‘simliklarning nobud bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ba‘zi zararli organizmlari esa xar yili surunkasiga rivojlanib, dukkakli ekinlarga jiddiy iqtisodiy zarar yetkazmoqda, bu esa o‘z navbatida hosildorlikka keskin salbiy ta‘sir etadi. Xozirgi kunda respublikamizda loviya, mosh hamda no‘xat ekinlari zararli organizmlarining tur tarkibi, ularning biologik xususiyatlari, zararliligi, iqtisodiy zarar yetkazish miqdori va mezoni xamda ularga qarshi samarali kurashning usul va vositalari to‘liq o‘rganilmagan.

Shuningdek, ulardagi bir nechta mikroorganizmlar keltirib chiqaradigan kasalliklar tufayli 30-40%, ba‘zida undan kam ko‘proq dukkakli ekinlar xosili nobud bo‘ladi xamda olingan xosilning sifati pasayadi.

Dukkali don ekinlaridan sifatli mahsulotlar olishda ularni kasalliklardan ximoya qilish choralarini o‘z vaqtida ishlab chiqish muxim ahamiyatga ega. Dukkali don ekinlaridan no‘xat ekinida ildiz chirish, fuzarioz, un-shudring, askoxitoz, loviyada ildiz chirish, fuzarioz, antraknoz, zang va moshda ildiz chirish, fuzarioz, va antraknoz un-shudring kasalliklari mavjud bo‘lib, xosilga katta zarar yetkazadi.

Shuning uchun, respublikamiz sharoitida takroriy ekin sifatida keng etishtirilayotgan dukkakli ekinlar zararli organizmlarining tur tarkibini qayta ko‘rib chiqish, biologik rivojlanish xususiyatlari, zararliligi va ularga qarshi kurashish uchun ilmiy asoslangan muddatlarini, yuqori samara beradigan vosita hamda usullarni o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish xozirgi kunda qishloq xo‘jaligida muxim muammolardan biri xisoblanadi.

No‘xat biti - no‘xot, beda o‘simliklarini barglarini so‘rib zarar yetkazadi. No‘xat biti tuxum va voyaga yetgan partenogenetik urg‘ochi bitlik bosqichida qishlaydi. Erta ko‘klamda (martda) bedapoyada paydo bo‘lgan shira to‘dalarini ko‘rish mumkin. No‘xat biti beda dag‘allashganiga qadar rivojlanadi. Keyinchalik boshqa o‘simliklarga, asosan no‘xatga o‘tadi.

O‘rgimchakkana - so‘ruvchi zararkunda bo‘lib, keltiradigan zarari bilan boshqa barg zararkunandalardan ajralib turadi. Bu zararkunanda bir qancha qishloq xo‘jalik ekinlari,



jumladan, dukkakli don ekinlariga, ayniksa, mosh va soyaga katta zarar keltiradi. Zararkunanda mosh va soya ekilgan maydonlarida keng tarqalgan bo‘lib, asosan o‘simlik 4-5 chinbarg chiqargandan boshlab barglarning orqa tomoniga joylashib olib, o‘simlik shirasini so‘rib oziqlanadi. Zararlangan barglar yuzasi qizarib turib, tushib ketadi, natijada ilk tupdagi donlar yetila olmasdan puch bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi.

Qo‘ng‘izlar - turkumiga mansub tuganak uzunburunlarning 2 turi: maysa uzunburun qo‘ng‘izi va ola-bula no‘xat uzunburun qo‘ng‘izi dukkakli don ekinlarida ko‘p uchraydi. Bu qo‘ng‘izlar erta baxorda ekilgan dukkakli don ekinlarini maysadagi birinchi barg, o‘sov nuqtasini xamda urug‘ pallasini zararlab nobud qiladi. Tuxumini tuproq yuzasiga tarqoq xolda, o‘simlikka esa kamdan kam xolda qo‘yadi. Tuxumdan chiqqan lichinkalar ildizdagi azot to‘plovchi tuganaklar bilan oziqlanib rivojlanadi.

Loviya donxo‘ri - dala sharoitida dukkak yoriqlari yoki dukkaklarga maxsus teshikchalar xosil qilib, shu joyga tuxum qo‘yishi mumkin. Ba‘zi hollardagina urg‘ochi qo‘ng‘izlar dukkaklarni yon taraflarini tuxum qo‘yish uchun kemirib teshishi mumkin. Xajmi kichik bo‘lishiga qaramasdan, bu teshiklarga qarab zararlangan dukkakni zararlanmaganidan farq qilish mumkin. Urg‘ochi qo‘ng‘iz 50-100 tagacha tuxum qo‘yadi va bir kunda tuxum qo‘yish maxsuldorligi 26 tagacha yetishi mumkin.

To‘rt dog‘li donxo‘r - tuxumlari shakli ellipssimon, bir uchi o‘tkirlashgan bo‘lib, o‘lchami 0,6-0,8 mm. Tuxumlar birinchi ko‘yilgan paytda shaffof xuddi suv tomchisiga o‘xshaydi, keyinchalik esa xiraroq-oqish tuyiladi. Lichinkalar chiqish oldidan tuxumlarining ikki uchi xam tenglashib yumaloqlashib qoladi. Birinchi yoshdagi lichinkalari tuxum xorioni ostida urug‘ qobig‘ini kemiradi. Lichinkalarining urug‘ga kirish teshikchasi mikroskopii o‘lchamda bo‘ladi. Agarda tuxumlar dukkakga qo‘yilgan bo‘lsa, u holda ichida lichinkasi bor bo‘lgan urug‘lar sog‘lom urug‘lardan farq qilmaydi. Bunda zararlanishning yashirin shaklini hosil bo‘ladi.

Ikkiqanotlilar - turkumiga mansub g‘ovak hosil qiluvchi no‘xot pashshasi no‘xot ekilgan maydonlarda keng tarqalgan xavfli zararkunanda hisoblanib, uning lichinkalari barg tuqimalari orasida siljib rasmlil g‘ovak yo‘l hosil qiladi. Natijada g‘ovak yo‘llari ko‘payib ketishi ko‘k bargini fotosintez qatlamidagi yuza qismlarini qattik shikastlaydi, natijada shikastlangan o‘simlik barglari oqarib so‘lib, tushib ketadi.

Beda qandalasi - beda, mosh, soya, loviya ekinlarining asosiy zararkunandasi hisoblanadi. U o‘simliklarni urug‘i va hosil nishonalariga zarar etkazadi xamda sifatini pasaytiradi.

Tangaqanotlilar yoki kapalaklar - turkumiga mansub zararkunandalardan bir necha turlari uchraydi. Bulardan eng asosiylari kuzgi va g‘uza tunlamidir.

Kuzgi tunlam - sug‘oriladigan yerlarda keng tarqalgan zararkunandalardan biridir. Uning qurtlari 34 oilaga mansub qishloq xo‘jaligi ekinlarini yosh nihollariga zarar etkazadi. SHular qatorida dukkakli don ekinlarning ildizi va yosh nihollariga zarar etkazib, ko‘chatlarni siyraklashib ketishiga va ekinlarning yosh niholligida nobud bo‘lishiga olib keladi.

Dukkakli ekinlarning zararkunandalariga qarshi kurash choralari



Almashlab ekish. Tuproqqa o‘z vaqtida puxta ishlov berish sog‘lom va chidamli o‘simlik o‘stirishning juda zarur shartlaridandir. Yer sho‘rini yuvish uchun kuz-qish oylarida yaxob berilganda tuproqning sho‘ri yo‘qoladi, nam ko‘p to‘planadi, zararkunanda va kasalliklarga chidamli sog‘lom nihollar tekis ko‘karadi. Bundan tashqari tuproqdagi hasharot va begona o‘tlarning ko‘p qismi qiriladi. Dalalarni tekislash natijasida nihollarning bir tekis unishi uchun qulay sharoit yaratiladi, zararkunanda hamda kasallik to‘planadigan joylar bo‘lmaydi. Yerni asoslangan muddatlarda chimqirqarli yoki qo‘sh yarusli plugda 30 sm chukurlikda (o‘t ko‘p bosgan dalalarni esa 32-35 sm chuqurlikda) ag‘darib shudgorlash zararkunanda va begona o‘t urug‘lari, kasallik qo‘zg‘atuvchilarni kuchli yo‘qotuvchi choradir. Bunda begona o‘t ildiz poyalarini tarab olish uchun sharoit kam yaratiladi.

Urug‘likni tayyorlash va uni ekish muddatlari. Ekin ekishda yuqori konditsiyali, faqat tumanlashtirilgan navlardan hamda turli kasalliklarga qarshi ishlov berilgan urug‘lardan foydalanish lozim. Ildiz kemiruvchi tunlamalar va so‘ruvchi zararkunandalar, shuningdek, kasalliklarga bardoshli sog‘lom, tekis o‘sgan nihollarni undirib olish uchun ekishni eng mo‘tadil muddatlarda va sxemada o‘tkazish zarur.

O‘simliklarni uyg‘unlashgan ximoya qilish tizimlarida kimyoviy usul hali ham yetakchi o‘rinni egallaydi. Bunda kutilgan samaraga tez erishiladi, barcha ishlarni to‘lik mexanizatsiyalash mumkin bo‘ladi. Bulardan foydalanish kimyoviy usulda ishlov beriladigan maydonlar hajmini qisqartirishga va o‘stirilayotgan ekinlarni saqlanishiga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anorbaev A.R. i dr. Меры борьбы с вредителями сельскохозяйственных культур. Tashkent, 2016.
2. Kimsanboev X.X. va boshqalar. O‘simliklarni kimyoviy himoya qilish. Toshkent, «O‘qituvchi», 1997, 270 b.
3. Murodov S.A. "Umumiy entomologiya" Toshkent, 1987.
4. Xujaev SH.T. "Entomologiya, qishlok xo‘jalik ekinlarini ximoya qilish va agrotoksikologiya asoslari" Toshkent, 2013.